SUN'IY INTELLEKT VOSITALARINI INFORMATIKA DARSLARIDA QO'LLASH METODIKASI

Adilova Dildora Isroilovna
Xalq deputatlari Oqdaryo tuman
Kengashi kotibiyat mudiri.
Quvondikova Dilfuza Isroil qizi
Jizzax politexnika instituti assistenti.

Annotatsiya. *Tezisda sun'iy intellekt (SI) vositalarini informatika darslarida qo'llashning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. O'quvchilarning algoritmik tafakkurini rivojlantirish, dasturlashni o'rgatish va shaxsiylashtirilgan ta'limni tashkil etishda SI vositalaridan foydalanish metodikasi taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, informatika o'qitish metodikasi, generativ SI, algoritmik tafakkur, shaxsiylashtirilgan ta'lim, raqamli kompetensiya.*

Аннотация. *В тезисе анализируются педагогические возможности применения средств искусственного интеллекта (ИИ) на уроках информатики. Предлагается методика использования средств ИИ в развитии алгоритмического мышления учащихся, обучении программированию и организации персонализированного обучения.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, методика преподавания информатики, генеративный ИИ, алгоритмическое мышление, персонализированное обучение, цифровая компетенция.*

Abstract. *This paper analyzes the pedagogical potential of using artificial intelligence (AI) tools in computer science classes. It proposes a methodology for utilizing AI tools to develop students' algorithmic thinking, teach programming, and facilitate personalized learning.*

Keywords: *artificial intelligence, computer science teaching methods, generative AI, algorithmic thinking, personalized learning, digital competence.*

Kirish.

Ta'lim tizimini raqamlashtirish sharoitida sun'iy intellekt texnologiyalari o'qitish jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Generativ til modellari, aqlli repetitorlik tizimlari va kodni tahlil qiluvchi vositalar o'qituvchiga dars jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchiga esa mustaqil o'rganish imkonini bermoqda. Biroq

SI vositalarini informatika darslariga tizimli kiritish metodikasi yetarlicha ishlab chiqilmagan, bu esa mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot jarayonida SI vositalarini informatika darslarida qo‘llashning quyidagi yo‘nalishlari ajratildi:

1. *Dasturlashni o‘qitish.* SI yordamchisi o‘quvchi yozgan kodni tahlil qilib, xatoni to‘g’ridan-to‘g’ri tuzatmasdan, yo‘naltiruvchi savollar orqali topishga undaydi. Bu o‘quvchining mustaqil fikrlashini saqlab qoladi.
2. *Shaxsiylashtirilgan ta’lim.* Vazifalar murakkabligi o‘quvchining bilim darajasiga qarab moslashtiriladi, har bir o‘quvchi o‘z sur’atida rivojlanadi.
3. *O‘qituvchi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash.* Test topshiriqlari, amaliy mashqlar va baholash mezonlarini tayyorlashga ketadigan vaqt qisqaradi.
4. *Tanqidiy fikrlash.* o‘quvchilar SI javoblarini tekshirish, xatolar va noaniqliklarni aniqlashga o‘rgatiladi.

Metodikaning muhim tamoyillari: SI vositasidan o‘qitish maqsadiga xizmat qiluvchi yordamchi sifatida foydalanish, akademik halollikni saqlash, shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash hamda o‘quvchilarda SI ga haddan tashqari tayanish holatining oldini olish.

Xulosa.

Sun’iy intelekt vositalarini informatika darslarida pedagogik jihatdan asoslangan holda qo‘llash o‘quvchilarning dasturlash ko‘nikmalari, algoritmik tafakkuri va raqamli kompetensiyasini oshirishga xizmat qiladi. Kelgusida taklif etilgan metodikaning samaradorligini pedagogik tajriba-sinov orqali baholash rejalashtirilgan.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-sonli qarori "Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash tO‘g’risida".

2. Miao F., Cukurova M. AI competency framework for teachers. Paris: UNESCO, 2024. 52 p. ISBN 978-92-3-100707-1. https://doi.org/10.54675/ZJTE2084

3. Liu R., Zenke C., Liu C., Holmes A., Thornton P., Malan D. J. Teaching CS50 with AI: Leveraging Generative Artificial Intelligence in Computer Science Education // Proceedings of the 55th ACM Technical Symposium on Computer Science Education V. 2 (SIGCSE 2024). Portland, OR, USA, March 20-23, 2024.

4. Siddiqov I.M., Toshtemirov J.A. “INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI” FANINI O‘QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY Scientific-theoretical and methodological journal Original paper ISSN 2992-9024 (online) 2026, volume 4, issue1